

## MOYBO‘YOQDAN FOYDALANISH USULLARI VA ISHLATILISHINING UMUMIY TAVSIFI (XROMATIK VA AXROMATIK RANGLAR)

**Boltaboyev Ilhomjon G‘anijon o‘g‘li**

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlar va san’at fakulteti

Tasviriy san’at va musiqa ta’limi kafedrasи o‘qituvchisi

**Payzullayeva Dilfuza Anvarjon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlar va san’at fakulteti

Tasviriy san’at va musiqa ta’limi kafedrasи Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi  
ta’limi yo‘nalishi 2-bosqich 201-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Moybo‘yoqning xususiyatlari haqida umumiy tushunchalar berilgan. Moybo‘yoq haqida ham ma’lumot olishingiz mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Moybo‘yoq, rang tasvir san’ati, rang, axromatik va xromatik ranglar.

Moybo‘yoqda rasm ishlash rassom uchun ham, endi o‘rganayotgan talabalar uchun ham juda qiziqarli mashg‘ulotdir. Biroq mashg‘ulotning jiddiy qiyinchiliklari ham bor bo‘lib, bu Moybo‘yoq rang tasvir texnalogiyasi bilan ham bog‘liqdir. Chunki Moybo‘yoq bilan ishlash bir qancha tayyorlarliklarni talab etadi. Bularga bo‘yoqlarni tanlash ish chizish uchun matolarni tortib tayyorlash , rasm chizish uchun moyqalam tanlash kerak bo‘ladi. Moyqalamda rasm chizishni o‘rganishda natyumortlarni chizib mashq qilish orqali malakasini oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Moybo‘yoqli natyumort ishlash jarayonining ayrim tomonlari akvarel bo‘yoq bilan ishslash texnikasiga o‘xshab ketadi. Chunki moybo‘yoqda ishslashda ham qalam

tasvir usulidan to‘liq foydalilanadi va chizib olinadi. Agar akvarelda rasm ishlansa unda mayda detallargacha ahamiyat beriladi. Moybo‘yoqda ishlash uchun esa eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Sababi moybo‘yoqda rasm ishlash jarayonida batafsillik moyqalamda ishlanishi mumkinligidandir. Moybo‘yoqda rasm ishlashda ranglarni ochartirish uchun uning oq rang kerakli darajada qo‘shiladi. Buni yana bir tomoni ham borki oq rang qo‘shilgach bo‘yoqlikning erkinligi ma’lum darajada kamayadi. Buni mashqlarni bajarish mobaynida albatta hisobga olish kerak. Moybo‘yoq tasvirini ishlash uchun kerakli ashylardan foydalilanadi. Bular romga tortib qoplama surtilgan mato moybo‘yoqlarning kerakli turdag'i ranglari, bo‘yoqtaxta (palitra) moyqalamning turlicha kattalikdagilari va boshqalardan iboratdir. Romda tortilgan mato qanday tortirganligini chizilgan tasvirning sifatidan bilsak bo‘ladi. Uning qoplamasini 2xil usulda tortiladi. Biri moyli qoplama deb aytildi.

Moyli qoplama 5 foizli yelim 5 foizli borga qoshiladi. Uni matoni ustiga surtiladi. Bir martta surtilgandan keyin qoplama bo‘yoq qatlami tayyorlab olinadi. U quyidagicha yani maxsus oqartirilgan yoki maxsus kukun qo‘silib tayyorlangan aralashma bo‘ladi. Yog‘ va kukun aralashmasi tayyor idishga solib chiqarilgan moybo‘yoqqa o‘xhashi va uningdek suyuq bo‘lishi kerak emas. Shunda uni matoga tekis qilib surtib chiqish mumkin. 1- haftadan keyin qurigach yaxshilab g‘adir- budir yerlari qumqogoz bilan yaxshilab tekislanadi va moyli qoplama bilan katta moyqalamda tekis qilib bo‘yab chiqiladi. Shu usulda tayyorlangan mato 2-3 oy quritiladi. Mato saqlanadigon joy iliq va quruq bo‘lishi shart.

Ikkinci yelimli qoplama quyidagicha tayyorlanadi. 50-60 gramm jeletin suvda eritiladi keyin unga 15 gramm gretselin qo‘shiladi. So‘ng u matoga 1-2 martta surtiladi. Shundan keyin yelim aralashmasi bo‘r va oq bo‘yoq kukuni bilan teng qo‘shiladi. 40 gradus darajada eritiladi Agar aralashma quruq bo‘lib qolsa o‘sha yelim aralashmasidan qo‘shiladi. Bu qoplama 2-3 martta qavatma –qavat qilib surtib chiqiladi. Qoplamlar yana ma’lum rang tusida ham tayyorlanadi. Ular ko‘pincha ijodiy ishlarini bajarganda va kompazitsiya yaratish jarayonida kerak bo‘ladi. Moybo‘yoqda o‘quv mashqlarni bajarishda rang turlaridan ham

unumli foydalanish talab etiladi. Vazifalarni bajarayotganda bilib bilmasdan rang turlaridan noto‘gri foydalanish yaxshi samara bermaydi. Shuni ham aytish kerakki tabiatda absalyut oq va absalyut qora ranglar ham bor . Bularning hammasi qandaydir bir rang tovlanishida bo‘ladi. Misol uchun qoraning jirarrangga, ko‘kka, yashilga moyil ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Oq rang turli nozik tuslarga moyilligi ham tabiiy. Shunday ranglarni to‘q ochligini topib tasvirlash uchun moybo‘yoqda ishlash texnikasi judayam qulay. Moybo‘yoq ishlanish imkoniyatlarining kengligi bilan boshqa bo‘yoqlardan ajralib turadi. Moybo‘yoqda ish ishlaganda moyqalamning ham ahamiyati katta. Natyumortlarni, katta ishlarni bajarishda dagal va yapaloq moyqalamdan foydalanilsa ishni sifati yanada ortadi. Moybo‘yoq ishlatilayotganda suyultiruvchi , erituvchi vositalar qo‘shib ishlatiladi. Bular moyli, moyi kamaytirilgan bo‘lishi mumkin.

Tabiatdagi mayjud ranglarni ikki qismga: axromatik va xromatik ranglarga ajratish mumkin. Tabiatdagi barcha ranglar, ya’ni biror rang tusiga ega bo‘lgan ranglar (oq, qora va kulrangdan tashqari) xromatik ranglarga kiradi. Quyosh spektrining barcha ranglari hamda ularning bir-birlari bilan aralashuvidan hosil bo‘lgan hamma ranglar ham xromatik ranglar jumlasidandir.Axromatik ranglar bir-biridan yorug‘lik kuchi jihatidan farq qiladi. (oq, kulrang va qora).

Xromatik ranglar axromatik ranglardan farqli o‘laroq faqatgina yorug‘lik kuchlari bilan emas, balki nomlari, tuslari jihatdan ham ajralib turadi. Masalan sariq rang qizil rangdan ham yorug‘lik kuchi, ham rangining tusi keskin farq qiladi. Har bir xromatik rang uchta xossaga: 1.Rang tusi, 2.rang yorqinligi, 3.rang to‘yinganligiga ega bo‘ladi. Rang tusi-ranglarning to‘lqin uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu xossasiga ko‘ra biz orqali qizil, sariq, zangori va boshqa spektral ranglarni ko‘ramiz hamda idrok qilamiz. Lekin rang tuslari ularga qo‘yiladigan rang nomlariga qaraganda ancha ko‘proq. Agar biror rangga oq rang qo‘sxilsa, mazkur rang tusining to‘lqinlar uzunligi o‘zgarmaydi. Chunki, oq rang qo‘shilganda faqatgina rang yorqinligi o‘zgaradi va u qaytarish koefitsenti bilan ifodalanadi. Rang yorqinligi-xromatik ranglarning asosiy xossalardan biri bo‘lib, tushayotgan yorug‘lik nurini

o‘ziga ko‘p-kam aks ettirishidir. Agar yorug‘lik nurlari ko‘p aks etsa, biz ranglarni och tusda (masalan:och yashil, och qizil) idrok qilamiz. Ranglarni bu xossasi barcha tusdagi ranglar uchun-xromatik ranglar uchun ham, axromatik ranglar uchun ham umumiylis hisoblanadi. Shuning uchun ranglarni yorqinligi jihatdan bir-birlarining yorqinligiga mos tushadigan xromatik tusni tanlab olish oson kechadi. Rang tuslari spektr ranglariga qanchalik yaqinlashsa, ularning yorqinligi, ya’ni ravshanligi, tiniqligi shunchalik yaxshi bo‘ladi. Rang to‘yinganligi-ikkala rang guruhiга xos narsa bo‘lib, axromatik ranglarda esa ko‘proq spektr ranglarga solishtirish yo‘li bilan aniqlanadi.

## ADABIYOTLAR

1. B.N.ORIPOV “TASVIRIY SANATNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI, DIDAKTIKASI VA METODIKASI” 2013
2. S.F.ABDIRASULOV “TASVIRIY SAN’AT O‘QITISH METODIKASI” 2012
3. Egamov X. Bo‘yoqlar bilan ishslash. - T.: «O‘qituvchi», 1981
4. Abdirasilov S.F., Tolipov N.X. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. - T., «Aloqachi», 2007.
5. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy qilish. - T.: «Fan va texnologiya) . nashriyoti, 2008.
6. Султанов, Х. Э., Анкабаев, Р. Т., Хасанова, Н. С., & Чориева, Н. Ш. (2017). Инновационные методы обучения на занятиях по изобразительному искусству. In Актуальные вопросы современной педагогики (pp. 103-105).